

## BO'LAJAK BO'LAJAK KOMPETENTLI O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV- KREATIV PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA USULLARI

**Xalikov To'liq Xurramovich**

*TerDU, rus va jaxon adabiet kafedrasida*

**Annotatsiya:** *Makolada bo'lajak bo'lajak kompetentli o'qituvchilarning kommunikativ- kreativ pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish yo'llari va usullari, tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish tizimini kurib chikadi.*

*Shuningdek, innovatsion yondoshuvda axborotni o'zlashtirish, idrok etilgan axborotni mustakil taxlil kilish, o'z mustakil fikrini bildirishni taqoza etuvchi va qiska muddatda optimal (eng maqul) usullar yordamida belgilangan maksadga erishish yo'llari kursatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion o'kitish, innovatsion dastur, innovatsion yondoshuv, innovatsion turlar, innovatsion texnologiya. innovatsiya, innovatsion dunyoqarash, innovativ nazariya, innovatsion jarayon.*

**Аннотации:** *В статье рассматриваются пути и средства совершенствования процесса подготовки будущих учителей к инновационной педагогической деятельности. исследует систему совершенствования тренировочных процессов.*

*Инновационный подход также намечает способы достижения поставленной цели с использованием сбора информации, независимого анализа воспринимаемой информации, независимого выражения идей и оптимальных (оптимальных) методов в краткосрочной перспективе.*

**Ключевые слова:** *инновационное обучение, инновационная программа, инновационный подход, инновационные типы, инновационные технологии. инновации, инновационное мировоззрение, инновационная теория, инновационный процесс.*

**Annotations:** *The article discusses the ways and means of improving the process of preparing future teachers for innovative pedagogical activity. explores the system of improving training processes.*

*An innovative approach also outlines ways to achieve this goal using information gathering, independent analysis of perceived information, independent expression of ideas and best (best) methods in the short term.*

**Key words:** *innovative teaching, innovative program, innovative approach, innovative types, innovative technologies. innovation, innovative worldview, innovative theory, innovation process.*

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik innovatika nazariyasi bo'yicha bilimlari va ilmiylik prinsipini amalga oshirish bo'yicha malakasini hisobga olmasdan ularni

zamonaviy talablarga muvofiq ravishda innovatsion faoliyatga tayyorlashni amalga oshirishning iloji yo'q. Boshqacha qilib aytganda, pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining innovatsion tayyorgarligini o'rganish quyidagi maqsadlarni ko'zlashi kerak: bunday tayyorgarlikning yaxlit tizimidagi cheklangan tomonlarni aniqlash; bo'lajak o'qituvchida maktab innovatsion sohasini boshqarish ko'nikmasini shakllantirish uchun o'quv-tarbiya jarayonida qaysi yo'nalishlarda o'zgartirishlar kiritish kerakligini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini o'rganish bir necha yillar davomida (2016-2021 yillar) olib borildi, bunda asosiy e'tibor pedagogika oliygohlari birinchi kurs talabarlari va bitiruvchilari tayyorgarligining quyidagi unsurlarining sifatini (ko'lami va chuqurligi, ketma-ketligi, barqarorligini) aniqlashga qaratildi:

1. Innovatsion dunyoqarash.
2. Pedagogik innovatika nazariyasini egallash.
3. Innovatsion tajribani ko'chirish va uzatish ko'nikmalari.
4. Pedagogik yangiliklarni o'quv jarayonida amalga oshirish metodikasi va uning natijalarini baholash.[1-6 b]

Innovatsion tayyorgarlikning qayd etib o'tilgan har bir unsuri turli yo'nalishdagi o'qituvchilarga mo'ljallangan muayyan savol va topshiriqlarda o'z aksini topgan. Masalan, pedagogik innovatika nazariyasiga oid savollarga pedagogik innovatsiya maqsadlari, uning psixologik-pedagogik asoslarini bilish, "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "yangiliklar kiritish", "innovatsion tizim" toifalarini tushunish, innovatsion jarayonlarni amalga oshirish yo'llari va hokazolarni kiritdik.

Bitiruvchi bolajak o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorligining metodik darajasini aniqlash maqsadida ularda quyidagi ko'nikmalarni mavjudligini aniqlashga intildik:

- o'quv fanning innovatsion imkoniyatlari, uning innovatsiya ob'ektlari bilan aloqalarini aniqlash;
- o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning zaruriy sharti sifatida dars jarayonida ilmiylik prinsipini amalga oshirish;
- o'quvchilarning yangiliklarga moyilligi va qobiliyatini o'rganish, ularning qiziqishlarni rivojlantirish uchun adekvat metodik usullar va vositalarni tanlash;
- o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsiya ob'ektlarining moddiy asosiga mos ravishda ularning qidiruv faoliyatini tashkil qilish;
- yangiliklar kiritishning aniq shaklining tarbiyaviy imkoniyatlarini baholash;
- innovatsion tajribani uzatishning mos metodlari va usullarini tanlash;
- haqiqiy vaziyatni aks ettiruvchi pedagogik sinovlar o'tkazish rejasini tuzish;
- sinovlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish;
- pedagogik g'oyalarni joriy qilish.

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini o'rganishda pedagogik tadqiqotning keng ko'lamlı metodlaridan foydalanildi: so'rov, suhbat, so'rovnoma, kafedra, fakultetlarning hisobot hujjatlarini o'rganish, imtihonlar, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot bo'yicha hisobotlarni tahlil qilish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, kurs sinovlari va yakuniy nazoratlarda qatnashish. Bundan tashqari ekspert baholash usuli qo'llanildi, buning uchun ekspert guruhi tashkil etildi. Bu guruhga mos kafedralar o'qituvchilari va maktab xodimlari kiritildi.[5-175b]

Bo'lajak o'qituvchilar so'rovi Termiz davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti Shaxrisabz pedagogika instituti va Toshkent davlat pedagogika universitetlarida o'tkazildi. O'qituvchilar va maktab direktorlari bilan so'rov o'tkazish uchun muallifning xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslaridagi ishidan foydalanildi.

So'rov ikki bosqichni o'z ichiga oldi. Birinchi bosqichda tadqiqot vektori, "050109- matematika", "050103- pedagogika va psixologiya", "050102-pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" mutaxassisliklari bo'yicha birinchi kurs talabalari va bitiruvchilarining innovatsion dunyoqarashiga qaratildi.

Respondentlar yozma ravishda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodikasi, pedagogik innovatsiyalar, shuningdek, o'qituvchi-novatorlarning innovatsion tajribasini o'rganish metodikasi sohasidagi savollarga javob berishdi.

Yozma so'rovning bexosdan o'tkazilishi repandentlarning oldindan tayyorlanib olishiga yo'l qo'yilmadi, ular oldindan ogohlantirib qo'yilgani yo'q.

Ikkinchi bosqichda oliy pedagogik ta'lim muassasalarining "050114- tarixi", "050103- pedagogika va psixologiya", "050102 boshlang'ich ta'lim metodikasi" mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning pedagogik innovatika nazariyasi va amaliyotni o'zlashtirganligi aniqlandi.

Birinchi kurs talabalari 18 ta savolga javob berishdi: pedagogik innovatika bo'yicha 6 ta, innovatsion pedagogik texnologiya bo'yicha 5 ta, innovatsion faoliyat bo'yicha 3 ta, pedagogik yangiliklarni amalga oshirish bo'yicha 2 ta, har xil mavzuda 2 ta. Bitiruvchilar esa 34 ta savolga javob berishdi, bu savollarning 10 tasi pedagogik innovatika bo'yicha, 5 tasi innovatsion pedagogik texnologiya bo'yicha, 7 tasi pedagogik-innovatsion faoliyat bo'yicha, 9 tasi pedagogik yangiliklarni amalga oshirish bo'yicha va 3 tasi har xil mavzuda berildi.

"Har xil mavzu" ro'yxatiga pedagogik sinovlar o'tkazish, ularning natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va joriy qilish sohasida talabalarning amaliy tayyorgarligi darajasini aniqlash imkonini beradigan savollar kiritildi. Shunday qilib, bitiruvchilar uchun savollar majmuasiga birinchi kurslar uchun mo'ljallangan 18 ta savol ham kiritildi, bu esa institutda o'qish davomidagi innovatsion dunyoqarashning o'zgarish darajasini o'lchash va shakllantirilgan bilimlar va ko'nikmalarni qayd etish imkoniyatini berdi.

Sinov o'quv yilining oxirida, birinchi kurslar asosiy tayanch fanlar qatoriga kiruvchi "Pedagogik kasbga kirish", "Pedagogika", "Psixologiya" kurslarini,

bitiruvchilar esa o'quv rejasining hammasini yakunlagandan so'ng o'tkazildi. Savollar turli murakkablikda tuzilgan edi. To'g'ri javob berish uchun quyidagilar talab qilinadi: 1) o'rganilgan materialdan foydalanish va takrorlash; 2) pedagogik va ilmiy bilimlarni bog'lay olish; 3) o'rganilayotgan innovatsiya ob'ektining pedagogikaga oidligi, texnologiyalanuvchanligi, tejamliligini tahlil qilish; 4) dars paytida pedagogik yangiliklarni qo'llash bo'yicha o'zining metodik bilimlari va malakasini ko'rsatish.

Har bir savollar varianti quyidagi mazmunga ega edi:

**1. Pedagogik innovatika.** Pedagogik innovatika tarkibi, tuzilmasi va funksiyalari. Pedagogik innovatika predmeti. Pedagogik yangiliklarni qo'llash. Innovatsion jarayonlarni boshqarish, yangiliklarni kiritish bosqichlari. Innovatsion jarayonlarni tizimlashtirish. Ilmiy-pedagogik bilimlar tizimida pedagogik innovatika.

**2. Innovatsion tajribani ko'chirish va uzatish.** Innovatsion tajribaning mohiyati. Uning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyati. Ilmiy isbotini tekshirish. Ko'chirish imkoniyatlari tahlili. Innovatsion tajribaning ommaviy amaliyotga foydalanishga tayyorligi.

**3. Pedagogik yangiliklarni joriy qilish metodikasi.** Sinov izlanishlari uchun ko'rsatmalar (nima maqsadida u amalga oshiriladi), maqsadning qo'yilishi, amaldagi tizimning tahlili va qisqacha izohi, uning kamchiliklarini aniqlash, kelajakdagi holati modeli (ideal yakuniy mahsulot), avvalgi ikki unurni taqqoslash natijasidagi ziddiyatlarni aniqlash. Pedagogik yangiliklarni pedagogikada qo'llash sharoitlari.

To'g'ri javoblar qatoriga nazariy materiallar bo'yicha yaqqol anglangan, savol batafsil tushuntirilgan, uning tabiiy-ilmiy asoslari ochib berilgan, ta'rifi to'g'ri bo'lgan javoblar kiritildi. To'liq va aniq bo'lmagan javoblarga nazariy materialni yoritishda to'g'ri tushunmaslik yoki bilimning mustahkam emasligi tufayli kelib chiqqan sezilarsiz xatolarni o'z ichiga olgan javoblar, noto'g'ri javoblarga esa savolning asosiy qismini bilmasdan yoki tushunmasdan, ilmiy bilimlarning yo'qligi natijasida berilgan javoblar kiritildi. Misol uchun "Innovatsiya va pedagogik yangilik orasida qanday farq bor?" savoliga uch xil toifadagi javoblarni keltiramiz.

To'liq to'g'ri javob: "Innovatsiya – bu tizim ichidagi o'zgarish. Pedagogik innovatsiya deganda, pedagogik tizimga o'quv-tarbiya jarayonining kechishi va natijalarini yaxshilash uchun kiritilgan yangiliklar tushuniladi. Pedagogik yangilik esa maqsadlarni takroran qo'yilishi natijasida ilgari mavjud bo'lgan harakatlarning qaytadan yuzaga kelishi bilan bog'liq ma'lum bir vaziyatda vujudga kelgan muayyan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya hisoblanadi."

To'liq va aniq bo'lmagan javoblar: "Innovatsiya – pedagogik faoliyatni talab qilingan darajaga olib chiqishni ta'minlovchi pedagogik faoliyatni yangilash konsepsiyalari, yangiliklar esa moslashtirilgan, kengaytirilgan va qayta rasmiylashtirilgan g'oya va harakatlar bo'lib, ular ma'lum muhitda va ma'lum vaqt davomida yanada dolzarb bo'ladi".

Noto'g'ri javob: "Innovatsiya – bu yangi ta'lim, yangiliklar esa ta'lim g'oyalaridir", bu ikki tushuncha ma'nosiga ko'ra bir xil va hokazo.

## 2.1-jadval.

### Talabalarining pedagogik innovatika savollariga javoblari

Javoblar	Javoblar soni, %	
	I kurs	IV kurs
To'g'ri	12	8
To'liq va aniq bo'lmagan	61	53
Noto'g'ri	27	39

Jadvalda talabalar so'rovi natijalari keltirilgan (oliy pedagogik ta'lim muassasalari birinchi kurslarining 158 ta javobi, bitiruvchilarining 272 ta javobi).

2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'g'ri javoblar soni unchalik ko'p emas (birinchi kurslarda 12 foiz, bitiruvchilarda 8 foiz). Birinchi kurslar uchun g'oyalarni shakllantirish, yangiliklarni kiritish rejasini ishlab chiqish bilan bog'liq savollar qiyinlik qildi. Bu haqiqatga to'g'ri keladi, chunki maxsus ilmiy bosqichda "Pedagogik innovatika" kursi mavjud emas, "Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodikasi" kursi esa to'rtinchi semestr rejasiga kiritilgan.

Birinchi kurslar yaqindagina asosiy fanlarni ("Pedagogika mutaxassisligiga kirish", "Pedagogikaning umumiy asoslari", "Umumiy psixologiya" va boshqalar) o'rgangan bo'lsalar-da, so'rov o'tkazilganda ko'pchilik respandentlar tanish mavzular bo'yicha savollarga javob bera olishmadi. Masalan, "Pedagogik tizim unsurlarini ayting?", "Modul asosida o'qitishning texnologik jarayonini izohlab bering", "Pedagogik texnologiya uchun nimalar xarakterli hisoblanadi?" savoli birinchi kurslarga ko'proq qiyinchilik tug'dirdi. Qo'yilgan savollarga keng innovatsion dunyoqarashga ega bo'lgan, fikrlash doirasi rivojlangan talabalar to'g'ri javob berishdi.

Bitiruvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirish koeffitsienti miqdorini aniqlash, joriy qilingan yangiliklarning samaradorligini tahlil qilish, ularni amalga oshirish bosqichlari, innovatsion jarayonni amalga oshirishga qo'yiladigan asosiy talablar, turli kurslarda qo'llaniladigan yangi texnologiyalar tavsifi bilan bog'liq savollarga javob berishga qiynalishdi.

Respandentlar muammoli o'qitish texnologiyasini yoritishda, individual va tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasini tushuntirishda, innovatsion jarayonlarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini (uzluksizligi, egiluvchanligi, integrativligi, natijaviyligi va hokazolarni) izohlashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yishdi. Respandentlarning asosiy qismi "Amalga oshirish paytida tadqiqotning empirik metodlaridan foydalanilgan pedagogik tajriba-sinovlarga misol keltiring" topshirig'i bajarishning uddasidan chiqa olishmadi. To'g'ri javob uchun ilmiy-pedagogik tadqiqot doirasidagi bilimlar talab qilingan edi. So'rov o'tkazilgan barcha respandentlar ichida faqat uchtasi bu topshiriqni bajara oldi.

Respandentlarning pedagogik innovatika nazariyasi bo'yicha javoblari pedagogik tadqiqot metodlarini qo'llash doirasida bilimlar nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham qonikarli ekanligini ko'rsatdi. Innovatsion o'qitishning pedagogik mohiyatni tushuntirishda respandentlar orasida "jimlik" kuzatildi. Bularning barchasi ularning

“Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, “Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodikasi”, “Pedagogikani o‘qitish metodikasi”, “Pedagogik mahorat” kabi asosiy va kasbga yo‘naltiriluvchi fanlar bo‘yicha tayyorgarligi kuchsiz ekanligini ko‘rsatdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoev Sh.M. Ilm – fan yutuqlari taraqqiyotning muxim omili. T.20161y: 31 dekabr “Ma‘rifat” gazetasi
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016-56b.
3. Adizov B. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.dok....diss. – T., 2002. – 276 b.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo: Uchebnoe posobie dlya magistraturi vsex specialnostey. – T.: «Chulpan», 2005. – 200 s. Globalizatsiya obrazovaniya: rol mejdunarodnix organizatsiy globalizatsiya i obrazovanie. Sb. obzоров. Otv. red. Zareskaya S. L. – M.: INION, 2011.
5. Jumaniyozova M. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. Ped.f.n.diss. – T., 2007-175b.
6. Zaripova M.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish: Ped.fan. fal. dok. (PhD) diss...-Term.,2022.-154 b.
7. Kurbanov Sh. Sotsialno-pedagogicheskie osobennosti natsionalnoy modeli i programmi po podgotovke kadrov: Diss....dokt.ped.nauk. –T., 2000. – 464 s.
8. Lazerev V.S., Konoplina N.V. Deyatelnostniy podxod k formirovaniyu sodержaniya pedagogicheskogo obrazovaniya // Pedagogika, 2000. – № 3. – S. 27-34.
9. Romanova I.A. Dialektika innovatsiy v otechestvennoy pedagogike (v teorii i praktiki obshchобразovatelnoy shkoli XX veka): Diss....kand. ped.nauk. – M., 1996. – 160 s.